

MINTAQА IQTISODIYOTINI OSHIRISHDA INFRATUZILMANING O'RNI

Nurullayev Baxrom Botirovich
Urganch Ranch texnologiya universiteti,
Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishda infratuzilmalarni rivojlanishi haqida yozilgan bo'lib, bunda xalqaro va mintaqaviy kesimdagи infratuzilmalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Infratuzilma, ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy infratuzilma, umumiy ishlab chiqarish shartlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье написано о развитии инфраструктур в развитии экономики, в которой выделены международные и региональные инфраструктуры.

Ключевые слова: Инфраструктура, социальная, экономическая, производственная, экономическая инфраструктура, общие условия производства и др.

ABSTRACT

This article is written about the development of infrastructures in the development of the economy, in which the international and regional infrastructures are highlighted.

Key words: Infrastructure, social, economic, production, economic infrastructure, general production conditions

KIRISH

Mintaqa iqtisodiyotida infratuzilmaning o'rmini aniqlashda dastlab mintaqaga iqtisodiyoti va infratuzilma atamalarining mazmun-mohiyatini tushunib olish zarur. Mintaqaviy iqtisodiyot mintaqaga taraqqiyotining ob'ektiv shart-sharoitlari va omillarini, ishlab chiqarish tarkibi, ijtimoiy soha va aholining turmush sharoitini, aholi va xo'jalikning joylashishini, iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishi va uning boshqarish mexanizmini, mazkur mintaqaning boshqa mintaqalar va mamlakatlar bilan o'rnatgan iqtisodiy aloqalarini tadqiq etadi.

Mintaqa (region) bu ma'lum hudud bo'lib, u boshqa hududlardan qator belgilar bo'yicha farq qiladi va o'ziga xos bir butunlik, tarkibiy elementlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligi bilan ifodalanadi. «Region» lotincha so'z bo'lib (regio), tarjima qilinganda mamlakat, o'lka, oblastъma'nosini anglatadi. «Region» so'ziga

sinonim qilib «rayon» tushunchasi ko’pchilik olim va tadqiqotchilartomonidan qabul qilingan.

Infratuzilma esa (lotincha: “infra”— pastda, ostida va “structura”— tuzilma, joylashuv)—ishlab chiqarishga va butun iqtisodiyotga xizmat qiladigan, ular uchun go‘yoki umumiy poydevor, tayanch yaratadigan tarmoqlar va faoliyat turlari majmuidir.

Iqtisodiyot infratuzilmasi transport va aloqa vositalari, omborxona, energiya va suv ta’minti va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiyot infratuzilmasi sifatida tasniflangan tarmoqlar doirasi turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi. Ularning umumiy maqsadi sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi tovar va xizmatlar oqimini soddalashtirish va samaraliroq qilishdir. Ayrim mualliflar iqtisodiyotning infratuzilmasi sifatida fan, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini ham kiritib, ularni iqtisodiyotning noishlab chiqarish (ijtimoiy) infratuzilmasi deb ataydilar.

Shuningdek, infratuzilma tushunchasiga ta’rif berilganda ayrim tadqiqotchilar uni tovarlar shakli va ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqador bo’lmagan, shuningdek, ishlab chiqaruvchiga to’g’ridan-to’g’ri foyda (yoki daromad) keltirmaydigan “jamiyat sarf xarajatlari” sifatida baholasalar, ayrim tadqiqotchilar ishlab chiqarish amalga oshirilishini va samaradorligini ta’minlashning zaruriy xarakterdagi shartlar (yo’llar va kommunikatsiyalar tarmog’i, transport vositalari va qatnovi, yer qurilishi va boshq.) majmuasi, deya e’tirof etadilar. Xuddi g’arb iqtisodiy tadqiqotchilik tizimida bo’lgani kabi, yaqin xorij, jumladan, rossiyalik bir qator olimlar ilmiy ishlarida ham, qolaversa, milliy tadqiqotchilikda ham infratuzilmalarga yagona, umumiy fikrdagi qarash mavjud. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, infratuzilmalarga berilayotgan tavsiflarning xilma-xillik ko’p hollarda tadqiq etilayotgan obyekt yoki faoliyat sohasining yetakchiliginini ta’minlashga bo’lgan bo’lgan moyillik ta’siriga uchraydi. Ya’ni, ayrim tadqiqot ishlarida moddiy ishlab chiqarish sektorini o’rganilish jarayonida ularda kechadigan munosabatlardagi infratuzilmalarning o’rni tadqiq etiladi va bunda tabiiyki, infratuzilmalar tarmoqosti soha sifatida baholanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Infratuzilma masalalarini o’rganish ancha uzoq tarixga ega bo‘lib, u mahalliy iqtisodiyot fanida D.I.Mendeleyev, A.I.Chuprov, shuningdek, sovet iqtisod fanida K.Myuller-Byulov, A.Yu.N. Xomyanskiy, S.S. Nosova nomlari bilan bog‘liq. Chet el iqtisodiyotida K. Marks, J. Marksning asarlarida infratuzilma muammolari muhokama qilingan.

A.V. Chuprov infratuzilma masalalarini asosan temir yo‘l transporti misolida o‘rgandi^[1]. K.Marks infratuzilma, birinchi navbatda, transport va

kommunikatsiyalar haqida gapirdi. Shuningdek, zamonaviy „infratuzilma“ tushunchasini ifodalash uchun ishlataladigan atamalarning ko‘pligini ta’kidlash kerak. Masalan, K. Marks o‘z asarlarida „mehnatning umumiy shartlari“^[2], “umumiy ishlab chiqarish shartlari“^[3] atamalarini ishlatgan.

Infratuzilmaga kiritiladigan sarmoyalarni xalqaro darajada ko’radigan bo’lsak, infratuzilmaga sarmoya kiritish bo‘yicha jahon yetakchisi Xitoy bo‘lib, u yalpi ichki mahsulotlarning o‘rtacha 8,5 foizini sarflaydi. Rossiya har yili yalpi ichki mahsulotlarning 3,2 foizini shu kabi maqsadlarga sarflaydi^[4].

So’nggi yillarda dunyo bo‘yicha infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar: AQShda-yalpi ichki mahsulotning 1,0%, Xitoyda-yalpi ichki mahsulotning 10,9%, Germaniyada-yalpi ichki mahsulotning 1,3%. Investitsiya kiritishda ayrim muammolar sifatida ko‘pincha pul bo‘lmagan ekvivalentda o‘lchanadigan ushbu turdagи investitsiyalarga qaytishni baholashni misol qilish mumkin. Masalan, amerikalik ekspertlarning fikricha, AQSHda transport inshootlari qurilishiga 1 million dollarlik sarmoya kiritilishi 35 ming ish o‘rni yaratish imkonini beradi^[5].

Mintaqada iqtisodni rivojlantirishda infratuzilmaning o‘rnini aniqlashda Xorazm viloyati kesimida ko‘rib chiqadigan bo’lsak, joriy yilning 5 - yanvar kuni Urganch shahridagi studiyadan Xorazm viloyatining jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag’batlantirish bo‘yicha monitoring ishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o’rinbosari S. Umurzoqov rahbarligida videokonferensiya shaklida uchrashuv bo‘lib o’tdi^[6].

Yig’lishda vazirliklar, idoralar, sanoat birlashmalari, tijorat banklari rahbarlari, mahalliy hokimiyat organlari, to’rtta sektor rahbarlari, shuningdek Xorazm viloyatining barcha tuman va shaharlari 519 ta mahalla rahbarlari ishtirok etishdi.

Yig’lishda iqtisodiy salohiyatni, aholini ish bilan ta’minalashning muhim yo’nalishlarini, infratuzilmaning hozirgi holatini va har bir mahallaning ijtimoiy sohasining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarurligi ta’kidlandi. Ma’lum bo’lishicha, hozirgi paytda Xorazm viloyatida umumiy qiymati 9,8 trillion so’m bo’lgan 686 ta investitsiya loyihibalarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, ular 15 mingga yaqin yangi ish o’rinlarini yaratishga imkon beradi.

Qo’shimcha ravishda shuni aytish lozimki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta’minalash, Xorazm viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo’jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning “o’sish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi

salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori mavjud bo'lib, unga ko'ra:

-hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha o'rnatilgan yangi tartib asosida Xorazm viloyatining tuman va shaharlardagi mavjud muammo va imkoniyatlar chuqur o'rganilgan holda, hududlar kesimida muhim loyihalar shakllantirilganligi va mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilish;

-Xorazm viloyatida 2022 — 2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,4 baravarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,4 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,1 baravarga, xizmatlar hajmini 3,1 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,2 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2022-yilda Xorazm viloyatida muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha kompleks tadbirlar, iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va Moliya vazirligi ushbu qaror doirasida respublika budgetidan ajratiladigan mablag'lar o'z vaqtida ajratib borilishi keltirilgan.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi joriy yilda ilovaga kiritilgan obyektlarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun zarur mablag'larni 2022-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida loyiha-qidiruv ishlari uchun nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish hamda 2023-yilga mo'ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish orqali viloyatda sezilarli darajada iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Xorazm viloyatida 2022 — 2026-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari

T/r	Ko'rsatkichlar	O'chov birligi	Jami	Yillar kesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
Xorazm viloyati								
1.	Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	hajmi (trln so'm) o'sish (%)	1,4 baravar	33,4 107,3	39,5 107,1	46,7 107,4	55,2 107,6	65,4 107,7
1.1	aholi jon boshiga	ming so'm	-	17 047,0	19 811,3	23 023,7	26 797,1	31 207,0
2.	Sanoat mahsulotlari	hajmi (trln so'm) o'sish (%)	1,4 baravar	15,3 107,8	17,1 107,4	19,2 107,9	21,6 108,1	25,3 112,4
2.1	aholi jon boshiga	hajmi (trln so'm) o'sish (%)	1,3 baravar	6,0 104,3	6,7 105,7	7,3 105,4	8,2 107,2	9,5 111,5
3.	Hududiy sanoat mahsulotlari	hajmi (trln so'm) o'sish (%)	-	9,6 105,3	10,7 106,2	12,1 105,7	13,7 107,8	16,0 111,5
3.1	aholi jon boshiga	hajmi (trln so'm) o'sish (%)	1,3 baravar	25,2 105,3	25,9 106,2	26,7 105,7	27,7 107,8	28,7 111,5
4.	Iste'mol tovarlari	hajmi (trln so'm)	-	13,1 150,0	17,9 134,5	23,3 127,2	29,0 122,0	34,9 119,0
4.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	3,1 baravar	5,5 104,4	6,5 104,2	7,8 105,2	9,4 105,2	11,3 105,5
5.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	hajmi (trln so'm)	-	1,2 baravar	1,1 103,2	1,1 103,2	1,1 103,5	1,1 103,6
5.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	1,1 baravar	103,2 103,2	103,2 103,5	103,5 103,6	103,6 103,7	103,7 103,7
6.	Xizmat ko'rsatish	hajmi (trln so'm)	-	3,1 baravar	13,1 150,0	17,9 134,5	23,3 127,2	29,0 122,0
6.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	3,1 baravar	150,0 104,4	134,5 104,2	127,2 105,2	122,0 105,2	119,0 105,5
7.	Qurilish ishlari	hajmi (trln so'm)	-	5,5 1,2 baravar	6,5 104,4	7,8 104,2	9,4 105,2	11,3 105,5
7.1	aholi jon boshiga	o'sish (%)	1,2 baravar	104,4 104,4	104,2 104,2	105,2 105,2	105,2 105,2	105,5 105,5
8.	Mahalliy budjet daromadlari	mlrd so'm	12 153	1 913,6	2 029,2	2 358,7	2 729,1	3 122,4
9.	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar	mlrd so'm	5163,0	695,0	834,0	998,0	1198,0	1438,0
10.	Noqishloq yerlarni auksiomsa chiqarish	birlilik	5440	1218	1153	1088	1023	958
11.	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan loyihalar boyicha o'zlashtirish hajmi va loyihalar soni	mlrd so'm	4 429,2	663,1	761,6	865,3	995,1	1 144,1
12.	"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida bajariladigan ishlar hajmi	mlrd so'm	2 212,5	367,1	369,6	425,0	488,8	562,1
13.	Aholini bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari asosida uy joy bilan ta'minlash	mlrd so'm	3 333	505	513	625	784	906
14.	Ichimlik suv tarmoqlarini tortish va rekonstruksiya qilish	birlilik	485/11556	93/2192	83/1972	93/2172	105/2500	111/2720
15.	Aholining ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi	km	2 973,7	800,4	711,3	603,5	443,2	415,3
16.	Oqova suv tizimi bilan qamrov darajasi	foiz	95,8	86,9	89,3	91,9	94,3	95,8
17.	Ko'p qavatlari uy joylar qurish	dona	11,5	8,2	9,2	9,9	10,8	11,5
18.	Ipoteka kreditlari hisobiga yakka tartibdagi uy-joylarni qurish	xonadon soni	485	93	83	93	105	111
19.	Elektr ta'minotini yaxshilash:	dona	3100	500	650	650	650	650
19.1	elektr tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish	km	5 129,3	1 005,3	1 010,5	1 020,7	1 041,2	1 051,6
19.2	transformatorlarni qurish va ta'mirlash	dona	1 077	217	215	215	215	215
19.3	podstanitayalarini yangilash	dona	10	5	3	0	1	1
20.	Avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash	km	4713,40	544,10	1004,02	1046,92	1052,22	1066,12
20.1	umumiy foydalanshadiq avtomobil yo'llarini:	km	1195,0	201,10	213,5	246,9	259,8	273,7
	asfalt bilan qoplash	km	1195,0	201,10	213,5	246,9	259,8	273,7
20.2	ichki xo'jalik yo'llarini:	km	3256,4	319,0	734,52	734,02	734,42	734,42
	qum-shag'al aralashmasi bilan qoplash	km	2940,5	202,0	684,62	684,62	684,62	684,62
	asfalt bilan qoplash	km	257,9	59	49,9	49,4	49,8	49,8

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlarni va ma'lumotlarni o'rganib chiqish natijasida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mintaqada iqtisodni rivojlantirishda iqtisodiy infratuzilmani to'g'ri shakllantirish muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tashkil etilgan infratuzilmaga amal qilgan holda hududda ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilishi, kamchiliklar sezilishi va bartaraf etilishi mumkin. Shuningdek, hududda yaxshi rivojlanishi mumkin bo'lgan sohalar yaqqol namoyon bo'lishi va unga e'tibor qaratish natijasida ish soni ko'payishi va aholi daromadlarini ham oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

- Кокурин Д.И., Назин К.Н.. *Формирование и реализация инфраструктурного потенциала экономики России*. М.: Транслит, 2011
- Маркс К., Энгельс Ф.. *Сочинения*. М.: Гос. изд-во политической литературы, 1955
- Маркс К., Энгельс Ф.. *Сочинения*. М.: Гос. изд-во политической литературы, 1955

4. Альбер Еганян. *Инвестиции в инфраструктуру: Деньги, проекты, интересы. ГЧП, концессии, проектное финансирование.*, 2015.
5. Назин К.Н. Влияние логистической инфраструктуры на состояние экономики: межрегиональный аспект“, *Интеграция и координация логистических процессов в цепях поставок*,2012
6. <https://brightzbekistan.uz/uz/xorazm-viloyati-mahallalari-tumanlari-va-shaharlarini-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlantirish-boyicha-kompleks-dasturni-tayyorlash-boyicha-ishlarning-borishi-korib-chiqildi/>